

Date: 25th October-2025

MUSIQA PEDAGOGIKASI “MAKTABGACHA TA’LIM TIZIMIDA MUSIQIY RIVOJLANISHNING AHAMIYATI VA METODIKASI” (NAZARIY VA AMALIY JIHATLAR)

Muallif: **Suyunboyeva Mehriniso Aktamjon qizi**

Toshkent shaxar Uchtepa tumani

“Do‘mboqcha” nomli 441- sonli MTT musiqa rahbari

Annotatsiya: Ushbu maqola maktabgacha ta’limdagi bolalarning musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirishning dolzarbligi, musiqiy ta’limning psixologik va pedagogik asoslari, shuningdek, amaliy metodikalar bilan tanishtiradi. Musiqiy o‘yinlar va ritmik mashqlar, bolalarning musiqiy qobiliyati, ritmni his qilish, jamoada ijro etish usullari tahlil qilingan. Tadqiqot asosan 3-6 yoshli bolalar uchun mo‘ljallangan musiqiy dasturlar va metodlarni tahlil qilishga qaratilgan. Maqola natijalari maktabgacha ta’lim jarayonida musiqani joriy etish, uning bolaning umuminsoniy rivojlanishidagi o‘rni, shuningdek, musiqiy faoliyatni yaratishda foydalaniladigan interaktiv usullarning ahamiyatini ochib beradi.

Kalit so‘zlar: musiqiy ta’lim, bolalar, maktabgacha ta’lim, milliylik, metodika, musiqiy rivojlanish, musiqiy o‘yinlar, maktabgacha yoshdagi bolalar, musiqa tarbiyasi, ritmni his qilish, estetik tarbiya, harakatlar koordinatsiyasi, ijodiy faoliyat, jamoada ijro, musiqiy qobiliyatni rivojlantirish, musiqiy did, musiqiy eshituv.

Kirish: Bugungi kunda erta yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda musiqaning o‘rni beqiyosdir. Bolalarda musiqiy qobiliyatlarni shakllantirish ularning kognitiv, emotsional va ijtimoiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababdan, maktabgacha ta’lim tizimida musiqiy ta’limning dolzarbligi va uning samaradorligini oshirishga qaratilgan tadqiqotlar katta ahamiyatga ega. Ushbu maqolada musiqaga ilk qadam mavzusi doirasida maktabgacha ta’limda musiqiy faoliyatning psixologik va pedagogik asoslari, metodik yondoshuvlar va amaliy tajriba natijalari tahlil qilinadi. Musiqiy mashg‘ulotlar bolalarning hissiy, ijtimoiy va intellektual rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Teoretik jihatdan, musiqaga chidamlilik, intonatsiya, ritm hissiy va ijodiy faoliyatni boyitish orqali bola shaxsiyatining barcha jabhalari rivojlanib boradi. Zamonaviy psixologiya va pedagogika sohasidagi tadqiqotlar, musiqaning miyamizda yaratayotgan neyropplastik o‘zgarishlari hamda til, harakat, tasavvur qobiliyatini rivojlanishini tasdiqlaydi. Ushbu tadqiqot 3-6 yoshdagi maktabgacha yoshdagi bolalar bilan olib borildi, maqsadimiz esa ularning musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirish usullari hamda metodik yondoshuvlarni rivojlantirish. Inson hayotida musiqa muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, yosh bolalarda musiqiy tarbiyaning ilk bosqichlari ularning hissiy olami, estetik didi va ijodiy tafakkurining shakllanishida beqiyos ahamiyatga ega. Hozirgi kunda musiqa nafaqat madaniy merosni saqlash, balki shaxsiy kamolot, kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirish, ijtimoiy moslashuv kabi jarayonlarda ham faol vosita sifatida qaralmoqda. Shu jihatdan, “musiqaga ilk qadam” jarayoni musiqiy ta’limning boshlang‘ich asoslarini chuqur o‘rganishni, samarali metodlarni izlashni taqozo



Date: 25th October-2025

etadi. Mazkur maqolada musiqiy tarbiyaning boshlang'ich bosqichdagi o'rni, metodik yondashuvlar va ularning bolalar rivojiga ta'siri yoritiladi.

Asosiy qism:

Musiqaga ilk qadam — bu bolaga musiqiy tovushlarni eshitish, ajratish, tushunish va his qilish qobiliyatini shakllantirish jarayoni. Shu jarayon orqali bola musiqiy tasavvurlarni hosil qiladi, ritm va ohangni anglashni o'rganadi, musiqaga bo'lgan qiziqishi kuchayadi. Dastlab ko'pincha oddiy qo'shiqlarni kuylash, quloq uchun mashqlar, musiqiy o'yinlar orqali amalga oshiriladi. Bu jarayon bola tafakkuri, nutqi, harakat koordinatsiyasi va emotsional sezgirlikni rivojlantiradi.

Boshlang'ich musiqiy tarbiyaning maqsad va vazifalari:

Maqsad — bolani musiqiy tovushlar olamiga olib kirish, unda musiqani tinglash va his qilish madaniyatini shakllantirish. Buning uchun quyidagi vazifalar bajariladi:

1. Eshitish qobiliyatini rivojlantirish.
2. Oddiy ritmik mashqlar orqali harakat va musiqani uyg'unlashtirish.
3. Xalq va zamonaviy qo'shiqlarni eslab qolish va kuylash.
4. Estetik did va musiqiy xotirani rivojlantirish.

Bu vazifalar tizimli yondashuv va yoshga mos metodlar orqali amalga oshiriladi.

Musiqiy tarbiyada dastlabki metod va shakllar

Musiqiy tarbiyaning dastlabki bosqichida eng samarali metodlar — o'yinli mashg'ulotlar, musiqiy ertaklar va tasviriy harakatlardir. Masalan, musiqiy o'yinlar orqali bolalar nafaqat quvnoqlikni, balki musiqiy ohang va ritmni anglashni ham o'rganadilar. Ertak va tasviriy mashg'ulotlar esa ularning tasavvuri va emotsional dunyosini boyitadi. Ta'kidlash joizki, dunyo tajribasida, xususan, Orff metodikasi yoki Suzuki tizimi bolani musiqa olamiga bosqichma-bosqich, ijodkorlikka undab olib kiradi. O'zbekistonda esa xalq qo'shiqlari, bolalar uchun mo'ljallangan musiqiy asarlar asosida tarbiyalash keng qo'llaniladi. Ветлугина Н.А. (1921–1996) – musiqa pedagogi, maktabgacha yoshdagi bolalarni musiqiy tarbiyalash bo'yicha mashhur olim, ko'plab metodik qo'llanmalar muallifi. U bolalarning musiqiy qobiliyatini rivojlantirish va musiqaga mehr uyg'otish bo'yicha ilmiy asoslangan uslublarni ishlab chiqqan. Uning asarlari Rossiya va MDH mamlakatlari maktabgacha ta'lim muassasalarida keng qo'llanilib kelinadi. U bolalarning musiqiy qobiliyatini rivojlantirish, ularning musiqaga bo'lgan qiziqishini oshirish, qo'shiq kuylash, ritmik harakatlar va musiqa tinglash orqali tarbiyalash metodikasini ishlab chiqqan. U bolalar psixologiyasi va musiqiy qabul qilish jarayonlarini chuqur o'rgangan. «Музыкальное воспитание закладывает основу для последующего развития музыкальных способностей ребёнка»¹

«Musiqaga ilk qadam»ning bola rivojlanishiga ta'siri: Musiqiy tarbiyaning ilk bosqichi bolaning shaxsiyati uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi. U nafaqat quloq va xotirani rivojlantiradi, balki emotsional sezgirlikni, nutqning ifodali bo'lishini, jamoada o'zini tutish qobiliyatini ham mustahkamlaydi. Bundan tashqari, musiqa bolani ijodkor

¹ Ветлугина, Н. А. (1990). Музыкальное воспитание детей в детском саду. Москва: Просвещение. (Ветлугина, 1990, с. 7).

Date: 25th October-2025

bo'lishga, o'z fikrini erkin ifodalashga undaydi. Shu sabab, musiqa nafaqat madaniy, balki psixologik va ijtimoiy ahamiyatga ham egadir. "Maktabgacha yoshdagi bolalarning musiqaga bo'lgan qiziqishini uyg'otish, ularning musiqiy eshitish qobiliyatini rivojlantirish tarbiyachi va oila oldidagi eng muhim vazifalardan biridir"²

Nazariy tahlillar: Adabiyotlar, metodik qo'llanmalar va ilgari o'tkazilgan tadqiqotlar tahlili.

Music in Childhood: From Preschool through the Elementary Grades (Campbell & Scott-Kassner) — maktabgacha va boshlang'ich sinf musiqasi bo'yicha keng tarqalgan darslik. Songs in Their Heads tahlili orqali bolalarning o'z musiqalarini qanday yaratishi va ularning musiqaga bo'lgan ichki tuyg'ulari ko'rib chiqilgan. Bu ishlar pedagoglarda bolalar ichki musiqa dunyosini, ijodkorlik jarayonini tushunishga yordam beradi va metodik qo'llanma sifatida katta ahamiyatga ega.

N.A. Vetlugina. Aslida Vetlugina rus musiqa pedagogi bo'lsa-da, O'zbekiston maktabgacha ta'lim tizimida uning asarlari keng qo'llanilgan va tarjima qilinib metodik qo'llanmalarga asos bo'lgan. Asarlari: «Maktabgacha yoshdagi bolalarning musiqiy tarbiyasi», «Bolalar bog'chasida musiqiy tarbiya metodikasi». Uning ishlarida bolalar musiqa darslarining mazmuni, mashg'ulot turlari, uslublar, bolalar qo'shiqlari, ritmik mashqlar, tinglash uchun asarlar tanlovi kabi jihatlar keng tarzda yoritilgan.

O'zbekiston musiqiy ta'limi tizimida ham aynan maktabgacha yoshdagi bolalar yoki bolalar musiqa rahbarlari uchun yozilgan metodik qo'llanmalar mavjud: G.T. Toshpulatova «Bolalar musiqa tarbiyasi» (metodik qo'llanma). Bu asarda maktabgacha yoshdagi bolalar bilan olib boriladigan musiqa darslari, ularning rivojlanish bosqichlariga mos usullar va dars ishlanmalar keltirilgan. S.D. Turakulova «Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan musiqa mashg'ulotlarini tashkil etish» (metodik qo'llanma). Unda mashg'ulot turlari, qo'shiqlar tanlash, musiqiy o'yinlar va ularning tarbiyaviy ahamiyati haqida yozilgan. A.M. Komilova «Musika mashg'ulotlarida didaktik o'yinlar» (qo'llanma). Musika rahbarlari uchun o'yinli metodlar, ijodiy topshiriqlar orqali bolalarning musiqiy qobiliyatini rivojlantirish yo'llari ko'rsatilgan. Bu asarlarning barchasi: Bolalarning musiqiy eshituvini, ritmni his qilishini, ifoda qilish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan. Amaliy dars ishlanmalari, mashqlar, qo'shiqlar, tinglash uchun asarlar repertuarini beradi. Musika rahbarlarining kundalik faoliyatini qulaylashtiradigan tavsiyalar va metodik ko'rsatmalar beradi. Ko'pchilik asarlarda xalq kuy va qo'shiqlari ham keng o'rin olgan, bu esa milliy ruhda tarbiya berishga xizmat qiladi.

"Bola musiqaga ilk qadam qo'yganida, uning qalbida estetik his-tuyg'ularni uyg'otish muhim ahamiyatga ega"³

Eksperiment: Maktabgacha ta'lim muassasalarida sinov darslari tashkil etilib, musiqiy ta'limning amaliy natijalari kuzatildi. Jumladan, Toshkent shahar, Uchtepa tumani MTT tomonidan o'tkaziladigan seminarlardagi musiqiy mashg'ulotlar bunga misol bo'la oladi.

² Xaitov U, Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun musiqa tarbiyasi. Toshkent: O'zbekiston. 2016, 12-bet.

³ Sobirova, M. (2017). Musika darslarida bolalarning estetik didini shakllantirish. Toshkent: O'qituvchi. 8-bet.



Date: 25th October-2025

Tadqiqot vaqtida quyidagi doimiy uslublar qo'llaniladi:

Interaktiv uslub: Bolalar bilan musiqiy o'yinlar, ritmik mashqlar, improvizatsion harakatlar.

Guruhli faoliyat: Kichik guruhlar shaklida ijro etish mashqlarini tashkil etish, hamkorlik va jamoaviy mehnatni rivojlantirish.

Individual yondoshuv: Har bir bolaning musiqiy qobiliyatlarini aniqlash va unga mos ravishda shaxsiylashtirilgan ta'lim dasturlarini ishlab chiqish.

Natija va tahlil

Eksperimental darslar davomida quyidagi natijalar

kuzatildi: Ritmik hisning rivojlanishi. Bolalarda oddiy ritmik tuyg'ular va musiqiy ohanglarga nisbatan sezgirlik ortdi. Improvizatsion faoliyat va erkin ijro darslari bolaning ijodiy qobiliyatlarini yanada oshirdi. Guruhli mashqlar bolalar orasida muloqot, hamkorlik va o'zaro yordam ko'rsatish madaniyatini shakllantirdi. Bunday tadqiqotlar butun dunyo izlanishlari natijasida asta-sekin rivojlanib bormoqda. Washington Universiteti professori Campbell Patricia Shehan (Campbell, P. S) hamda AQShdagi bir qator universitetlarning musiqa pedagogi Carol Scott-Kassner "Music in Childhood: From Preschool through the Elementary Grades" kitobida shunday degan: "Early musical experiences are crucial for shaping children's auditory perception and emotional responsiveness to music"⁴ (Dastlabki musiqa tajribalari bolalarning eshitish qobiliyati va musiqaga bo'lgan hissiy sezgirligini shakllantirish juda muhimdir). Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan olib borilgan musiqiy o'yinlar va ritmik mashqlar tajribasi natijalari tahlili shuni ko'rsatdiki, bunday faoliyat bolalarning musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Tadqiqot davomida 5–6 yoshli bolalar bilan tizimli ravishda o'tkazilgan musiqiy o'yinlar, raqs elementlari va ritmik mashqlar ularning musiqani tinglash, ritmni his qilish, ijodiy ifoda va jamoada ishlash ko'nikmalarini sezilarli darajada yaxshilagan. Tajriba boshida bolalar musiqiy jarayonlarda passivroq ishtirok etgan, ayrimlari musiqaga quloq solishda yoki ritmni takrorlashda qiynalgan. Mashg'ulotlar davomida esa ular musiqiy matnlarni tinglash, ularni harakat bilan ifodalash, oddiy musiqa asboblarida ritmik zarb berish kabi vazifalarni ijodkorlik bilan bajara boshladilar. Bolalar musiqani tinglash jarayonida unga mos harakatlarni tanlash, raqs elementlarini o'zlashtirish, jamoa bo'lib ijro etish hamda o'z fikrlarini ifoda etishda faolroq bo'lib qoldi. Ritmik mashqlar, xususan, takroriy qarsak chalish, oyoq urish, oddiy raqs qadamlarini bajarish kabi topshiriqlar orqali bolalar nafaqat ritmni his qilishni, balki harakatlarni muvofiqlashtirishni ham o'rgandilar. Shu bilan birga, musiqiy o'yinlar bolalarning e'tiborini jamlash, tezkorlik va eslab qolish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qildi. Masalan, "Qo'shiqqa mos qadam" yoki "Ritmni top" kabi o'yinlarda bolalar faol ishtirok etib, mustaqil ravishda ritmik harakatlarni ijro etishga o'rganishdi. Tahlil shuni ko'rsatadiki, musiqiy o'yinlar va ritmik mashqlar orqali bolalarda quyidagi ijobiy o'zgarishlar kuzatildi:

Musiqa eshituv va ritmik sezgirlikning rivojlanishi;

Harakat koordinatsiyasining yaxshilanishi;

⁴ Campbell, P. S., & Scott-Kassner, C. (2013). Music in Childhood: From Preschool through the Elementary Grades. Boston: Schirmer. p. 25.

Date: 25th October-2025

Nutq, nafas va imo-ishora vositalari orqali ifoda qilish ko'nikmalarining kuchayishi;
Jamoada hamkorlik qilish va ijtimoiy moslashuv darajasining oshishi;
Musiqiy faoliyatga qiziqish va ishtiyoqning kuchayishi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, musiqiy o'yinlar va ritmik mashqlar tizimli va metodik yondashuv asosida o'tkazilganda, bolalarning umumiy estetik didi, ijodiy tafakkuri va hissiy dunyosi sezilarli darajada boyiydi. Bu esa ularni maktabgacha ta'lim tizimida keyingi bosqichdagi musiqiy-ta'limiy jarayonlarga tayyorlashga mustahkam zamin yaratadi. Xulosa qilib aytganda, musiqiy o'yinlar va ritmik mashqlar nafaqat bolalarning musiqiy qobiliyatlarini, balki ularning shaxsiy sifatlari, ijtimoiy faolligi hamda psixofiziologik rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Tadqiqot davomida quyidagi qiyinchiliklar kuzatildi: Dars rejalashtirishda mos metodik yondoshuvlarni aniqlashda har bir bolaning individualligi hisobga olinishi lozim. Resurslar va vositalarning yetarli darajada ta'minlanishi, o'qituvchilarning zamonaviy malakasini yanada oshirish hamda zamonaviy vositalar bilan taminlanish.

Xulosa

Musika tarbiyasining ilk bosqichi bola rivojlanishida o'ta muhim o'rin tutadi. Bu jarayonda o'yin, qo'shiq, ertak kabi metodlar orqali musiqiy did, xotira, quloq va ritm sezgisi rivojlanadi. Musika bolalarni ijodiy fikrlashga undab, emotsional va ijtimoiy jihatdan boyitadi. Kelgusida bu yo'nalishda yangi metodik ishlanmalar yaratish, zamonaviy texnologiyalarni qo'llash orqali yanada samaradorlikka erishish mumkin. Bola hayotida musiqaning o'rni beqiyos bo'lib, u nafaqat estetik tarbiyaning asosiy vositasi, balki bolaning ruhiy, aqliy va ijtimoiy rivojlanishida ham muhim omil sifatida xizmat qiladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, musika ta'siri ostida bolaning eshitish, idrok etish, xotira va tafakkur qobiliyatlari sezilarli darajada rivojlanadi, shuningdek, ijobiy emotsional holat mustahkamlanadi. Musika bolalarning o'z-o'zini anglashi, tashqi dunyoni musiqiy obrazlar orqali his etishi va badiiy didini shakllantirishi jarayonida asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Jumladan, N.A. Vetlugina, S.P. Shatskiy, V.V. Medushevskiy va boshqa taniqli pedagog va musiqashunos olimlarning izlanishlarida musiqiy ta'lim-tarbiyaning bolaning shaxsiyati va ijodiy qobiliyatlariga ijobiy ta'siri ilmiy asosda isbotlangan. Ularning ishlarida maktabgacha yoshdagi bolalar bilan olib boriladigan musiqiy mashg'ulotlarda xalq kuylari, bolalar qo'shiqlari va harakatli o'yinlardan foydalanish orqali musiqiy idrok va eshituv madaniyatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Yurtimizda ham bu borada bir qator izlanishlar olib borilgan bo'lib, ular musiqaning bolaning milliy ongini shakllantirishdagi o'rni, an'anaviy kuy-qo'shiqlar asosida musiqiy tarbiya tizimini boyitish imkoniyatlarini chuqur o'rgangan. Jumladan, o'zbek xalq musiqasi, maqom san'ati va dutor kuylarining bolalar musiqiy tarbiyasidagi tarbiyaviy ahamiyati haqida ilmiy maqolalar va metodik qo'llanmalar yaratilgan. Ushbu izlanishlarning umumiy natijasi shuni ko'rsatdiki, musika bolalarda nafaqat eshitish va xotirani, balki ijtimoiy his-tuyg'ularni, jamoada o'zini tutish, fikrlash va ijodiy ifoda etish ko'nikmalarini ham rivojlantiradi. Shu bilan birga, musiqaning o'quv-tarbiyaviy jarayonga samarali kiritilishi bolaning shaxsiy rivojlanishida muhim o'rin tutadi va ularning badiiy-estetik dunyoqarashini shakllantiradi. Xulosa qilib aytganda, "bola va musika"



Date: 25thOctober-2025

mavzusidagi ilmiy izlanishlar musiqiy tarbiyaning bola shaxsini har tomonlama rivojlantirishdagi oʻrni va ahamiyatini yanada chuqur anglashga xizmat qildi. Musiqa – bolaning nafaqat hozirgi emotsional dunyosini, balki uning kelajakdagi ijtimoiy moslashuvi, intellektual rivoji va milliy qadriyatlarni anglashida ham poydevor vazifasini bajaradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Campbell, P. S., & Scott-Kassner, C. (2013). Music in Childhood: From Preschool through the Elementary Grades. Boston: Schirmer.
2. Karimova M. «Musiqiy tarbiya asoslari». – Toshkent: Oʻqituvchi, 2020.
3. Maktabgacha taʼlim vazirligi uchun tavsiya etilgan Musiqiy tarbiya darsliklari va metodik qoʻllanmalar – Toshkent, 2018–2022.
4. Orff C. «Orff-Schulwerk: Musiqa va harakat». – Munich, 2017.
5. Sharipova D. «Maktabgacha yoshdagi bolalarda musiqiy qobiliyatni rivojlantirish». – Toshkent, 2018.
6. Sobirova, M. (2017). Musiqa darslarida bolalarning estetik didini shakllantirish. Toshkent: Oʻqituvchi.
7. Vetlugina, N.A., Kalashnikova, Z.P. Musical Education of Preschool Children – Moscow, 1985.
8. Xaitov, U. (2016). Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun musiqa tarbiyasi. Toshkent: Oʻzbekiston.
9. Абдуллаева, М. Ҳ. Maktabgacha yoshdagi bolalarni musiqa madaniyatiga oʻrgatish – Toshkent: Oʻqituvchi, 2015.
10. Ветлугина, Н.А Музыкальное воспитание детей в детском саду. Москва: Просвещение, 1976
11. Калмыкова, З.И. Ритмика и музыкальные игры для дошкольников – Москва: ТЦ Сфера, 2003.
12. Костина, Э. В. Музыкальное воспитание детей дошкольного возраста – Санкт-Петербург: Детство-Пресс, 2009.
13. Қосимова, Ш. Musiqa darslarida ritmik mashqlar va oʻyinlar – Toshkent: Ilm ziyo, 2020.
14. Печникова, И. А. Развитие музыкально-ритмических движений у детей – Москва: Владос, 2010.
15. Пилян, Н. Музыкальные игры и упражнения для дошкольников – Москва: Мозаика-Синтез, 2014.

